

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 6

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

*Elektron nashr. 344 sahifa.  
E'lon qilishga 2024-yil 25-iyunda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir o'rinbosari:**  
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**  
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

### **Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya**, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi**, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, i.f.d., TDIUprofessor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, i.f.n., TDIU professori  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, i.f.d., TSUE professori  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farxod**, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Musayeva Shoiraz Azimovna**, SamDu IS instituti professori  
**Cham Tat Huei**, ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi  
**Djudi Smetana**, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH  
**Krissi Lyuis**, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH  
**Ali Konak (Али Кўнак)**, i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya  
**Glazova Marina Viktorovna**, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti  
**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti  
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

### Editorial board:

**Salimov Oqil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung**, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten**, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich**, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich**, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna**, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Samadov Askarjon Nishonovich**, CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich**, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli**, DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyeich**, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhod**, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich**, DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva**, professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei**, PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna**, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, associate professor of TSUE

**Sevil Piriyea Karaman**, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, independent researcher of TSUE

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor

**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori

**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori

**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti

**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti

**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti

**G'afurov Doniyor Orifovich**, p.f.f.d., (PhD)

**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti

**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti

**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi

**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

|                                                                                                                                                                                  |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Oliy ta'lim islohotlarida – muhandislik maktablarini institutsional rivojlantirish asoslari .....                                                                                | 16  |
| Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna                                                                                                        |     |
| Xufiyona iqtisodiyot mamlakatimiz rivojiga to'siq bo'lmoqda .....                                                                                                                | 20  |
| Muxiddin Kalonov                                                                                                                                                                 |     |
| "Yashil" iqtisodiyotni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish .....                                                                                                      | 24  |
| Muhammadiyeva Maftuna                                                                                                                                                            |     |
| Oliy ta'lim tizimidagi islohotlarda innovatsion yechimlarning zarurati .....                                                                                                     | 27  |
| Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna                                                                                                                                               |     |
| Hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishda<br>ish beruvchilar va yonlanuvchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni<br>aniq sotsiologik baholash..... | 31  |
| Dustmurodov Orifjon Ismatilloevich                                                                                                                                               |     |
| Перспективы развития средств размещения в экологическом туризме<br>на охраняемых природных территориях Узбекистана.....                                                          | 40  |
| Ахмедходжаев Равшан Темурович                                                                                                                                                    |     |
| Bank kartalari orqali ko'rsatilayotgan xizmatlari bozorining rivojlanish borasidagi<br>asosiy tendensiyalari va muammolari .....                                                 | 49  |
| To'irov Yunus Alamovich                                                                                                                                                          |     |
| Kichik biznes subyektlarida innovatsionraqabatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish<br>orqali import o'rnini bosish strategiyasini shakllantirish istiqbollari.....               | 55  |
| Rustamov Alisher Raxmataliyevich                                                                                                                                                 |     |
| Nodavlat umumiy o'rta ta'lim maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashda<br>innovatsion usullardan foydalanish.....                                                          | 62  |
| Ustadjalilova Xurshida Aliyevna                                                                                                                                                  |     |
| Tijorat banklarida bank risklarini boshqarishning strategik ahamiyati.....                                                                                                       | 67  |
| Altibayev Xudayberdi Kuvandikovich                                                                                                                                               |     |
| Klaster iqtisodiy subyekt sifatida: mohiyati va tasnifi.....                                                                                                                     | 71  |
| Usmonov Sharofiddin Pazlitdinovich                                                                                                                                               |     |
| Tijorat banklari tomonidan yoshlar tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning<br>nazariy-uslubiy jihatlari.....                                                                     | 76  |
| Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li                                                                                                                                                 |     |
| Oliy ta'lim muassasalari xalqaro tasnifi: nazariya va tendensiya.....                                                                                                            | 81  |
| Yuldashev Iskandar Bahromovich                                                                                                                                                   |     |
| Iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini<br>boshqarishda metodologik yondashuvlar va ilmiy qarashlar .....                 | 86  |
| Jiyanova Nargiza Esanboyevna                                                                                                                                                     |     |
| Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini samarali tashkil etish mezonlari va omillari.....                                                                                       | 93  |
| Z. Abdikarimova, S. Madaminov                                                                                                                                                    |     |
| Savdo korxonalari boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....                                                                                                          | 97  |
| Q. J. Mirzayev, Sh. M. Islomov                                                                                                                                                   |     |
| Sociological Assessment of Migration Processes .....                                                                                                                             | 102 |
| Gulmurodov Kamoliddin Abdukodir ugli                                                                                                                                             |     |
| Current issues of business management in the context of digitalization of the economy .....                                                                                      | 112 |
| Safarov Bakhtiyor Djurakulovich, Kadirova Zulhumor Namazovna, Dadabaev Kuchkor Abdullaevich                                                                                      |     |
| Методические основы маркетинговых стратегий акционерных обществ.....                                                                                                             | 118 |
| Эркинов Шахзод Баходир ўғли                                                                                                                                                      |     |



|                                                                                                                      |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce .....                        | 125 |
| <b>Abirkulova Sohijjamol</b>                                                                                         |     |
| Improving the Conceptual Framework for Modernizing the Tax System<br>(Using the Example of Uzbekistan) .....         | 130 |
| <b>Bakhrom Nomazov</b>                                                                                               |     |
| Ayollarning inson kapitalini rivojlantirishda kraudfanding platformasining<br>ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....     | 136 |
| <b>Bozorova Saxobat Abdujapparovna</b>                                                                               |     |
| Evaluating the Environmental Sustainability of Uzbek Firms in the Green Economy.....                                 | 142 |
| <b>Nurbek Xalimjonov Ulugbek ugli</b>                                                                                |     |
| O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlanishida inson kapitalining roli .....                                  | 148 |
| <b>Eshmirzayev Faruddin Ilhomjonovich, Salimova Zaxro Sobirjon qizi</b>                                              |     |
| Agroklastarlarda asosiy vositalarni modernizatsiyalash va ta'mirlash xarajatlarini tahlil qilish .....               | 155 |
| <b>G'afforov Ilhomjon Ilyosjonovich, Mirzayev Behzod Abdug'ofur o'g'li, Narzullayev Nodirbek Aziz o'g'li</b>         |     |
| Improving the Practice of Increasing the Effectiveness of Managing<br>Innovation Processes in Commercial Banks ..... | 160 |
| <b>Juraev K. T.</b>                                                                                                  |     |
| Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanish .....                       | 164 |
| <b>Mamasoatov Dilshod Ravshanovich</b>                                                                               |     |
| Iqtisodiyotni raqamlashtirish va yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda<br>solliqlarning roli va ahamiyati.....        | 169 |
| <b>Madraximov Baxtiyorjon Ortiqboy o'g'li, Rizayev Xabib Abduraufovich, Namazov Sa'dulla Namozovich</b>              |     |
| O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tishning joriy holati tahlili.....                                            | 175 |
| <b>Rahmatullayeva Dilbar Olimovna</b>                                                                                |     |
| Buxoro viloyatida savdo xizmatlari raqobatbardoshligini baholash uslubi-yatini takomillashtirish..                   | 181 |
| <b>Raxmatov Akmal Anvar o'g'li</b>                                                                                   |     |
| The Contribution of Transport in the Development of Tourism Industry<br>(Case Study: Uzbekistan).....                | 187 |
| <b>Rofeeva Rukhshona Shavkatovna</b>                                                                                 |     |
| Yoshlarning sayohat manzillarini tanlashdagi omillar .....                                                           | 192 |
| <b>Qurbanbayev Shuhrat Bakbergenovich</b>                                                                            |     |
| Improving the Effective use of Funds From Taxes and Fees in Kashkadarya Region .....                                 | 196 |
| <b>Shakhzod Zokhidov</b>                                                                                             |     |
| Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida sanoat korxonalarida<br>iqtisodiy salohiyatni boshqarish .....   | 202 |
| <b>Kadirova Shaxnoza Ilhomovna</b>                                                                                   |     |
| Yangi O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash masalalari.....                                      | 207 |
| <b>Usmonov Baxodir Suvonqulovich</b>                                                                                 |     |
| Temir yo'l transportida innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo'llari .....                                         | 211 |
| <b>Nasimov Shavkat Vasiyevich</b>                                                                                    |     |
| O'zbekistonda banklararo raqobat.....                                                                                | 219 |
| <b>Zunnunova Xulkar Muxtorovna</b>                                                                                   |     |
| O'zbekistonning xalqaro moliya tizimiga integratsiyasini ta'minlashni takomillashtirish .....                        | 225 |
| <b>Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna, Kuchkarov Sanjar Baxtiyarovich</b>                                           |     |
| Respublikamizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari .....                                              | 229 |
| <b>Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov</b>                                                                           |     |
| Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mohiyati.....                                                                   | 233 |
| <b>Aripov Oybek Abdullayevich, Madiyorov Shavkatbek Muxtarovich</b>                                                  |     |



|                                                                                                                                           |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Aksiyadorlik jamiyatlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy holat to'g'risida hisobot tuzishning bosqichlari.....                          | 237 |
| Eshonqulov Azamat Abdiraximovich                                                                                                          |     |
| Davlat moliyaviy nazoratining turlari va shakllari.....                                                                                   | 241 |
| Karayev Payzillaxon Yusufxonovich                                                                                                         |     |
| Tog' turizmini rivojlantirish manfaatlarini yo'lida investitsiya resurslarini to'plash mexanizmlarini ishlab chiqish samaralari.....      | 245 |
| Xidirov Alimardon Dagarovich                                                                                                              |     |
| The Main Role of the Teacher While Managing the Classroom and Some Aspects of Teaching English .....                                      | 248 |
| Nilufar Turdiyeva                                                                                                                         |     |
| Davlat xususiy sherikchilik faoliyatining menejment funksiyalari tizimida muvofiqlashtirishning ahamiyati .....                           | 252 |
| Suleymanov Farrux Raximjon o'g'li                                                                                                         |     |
| Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlari va sohada amalga oshirilayotgan tarkibiy-miqdoriy o'zgarishlar dinamikasi ..... | 256 |
| G. Sh. Qo'ldosheva, A. J. Toshboyev                                                                                                       |     |
| Логистика в Азии: опыт и перспективы оптимизации .....                                                                                    | 260 |
| Каюмова Паризода                                                                                                                          |     |
| Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish imkoniyatlarini oshirishning zamonaviy yondoshuvlari...                                         | 266 |
| G. I. Abdulxamidova                                                                                                                       |     |
| Повышение эффективности использования местных налогов и сборов в Кашкадарье: международная перспектива .....                              | 272 |
| Shahzad Zokhidov                                                                                                                          |     |
| Financial and Credit Support for Investment and Innovative Developing Activities of a Tourist Enterprise .....                            | 275 |
| Rozokov Mukhammadaziz Mansurovich                                                                                                         |     |
| Роль контроля качества по хранению и переработке зерна в обеспечении продовольственной безопасности Республики Узбекистан .....           | 282 |
| Холбекова Дилобар Расулжон кизи                                                                                                           |     |
| O'zbekistonda mahalla boshqaruvi tizimi faoliyatini takomillashtirish masalalari.....                                                     | 289 |
| Gafurov Ubaydullo Vaxabovich                                                                                                              |     |
| Kichik biznes va tadbirkorlik sharoitida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishning xorijiy tajribasi .....                 | 296 |
| Dilnoza Meyliyeva                                                                                                                         |     |
| Cross Cultural Preblems in International Business Negotiations .....                                                                      | 301 |
| Xoldarova Fariza Tuxtabayevna                                                                                                             |     |
| Yengil sanoatning raqobatbatdosh hududiy-ishlab chiqarish klasterlarini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribani qo'llash .....          | 304 |
| Haydarova Shoxista                                                                                                                        |     |
| Konchilik sanoati korxonalarining innovatsion jarayonlarni rivojlantirish xususiyatlari .....                                             | 310 |
| Kurbanova Mehriniso Nematjanovna                                                                                                          |     |
| Korxonalarda risk boshqaruvi mexanizmlarini joriy etish va inson resurslaridan foydalanish istiqbollarini takomillashtirish .....         | 315 |
| Tashpulatova Muniraxon Mahmudovna                                                                                                         |     |
| Spin korxonalar – texnologiyalarni tijoratlashtirishda muhim tuzilma sifatida .....                                                       | 320 |
| O'rinov Dilshodjon Axmadjonovich                                                                                                          |     |
| Mintaqalarda makroiqtisodiy barqarorlikning ta'minlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni takomillashtirish strategiyasi .....          | 324 |
| Xolbekova Feruza Rasulovna                                                                                                                |     |



|                                                                                                                  |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Iqtisodiy o'sish va aholi daromadlari o'rtasidagi bog'liqlikning nazariy asoslari.....                           | 329 |
| <b>Hasanova Nigora Hasan qizi</b>                                                                                |     |
| Современное состояние маркетинга на рынке ценных бумаг Республики Узбекистан.....                                | 334 |
| <b>Юлдашев Жамшид Аббарович</b>                                                                                  |     |
| Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsion<br>loyihalarni moliyalashtirish ..... | 340 |
| <b>S. A. Karabayev</b>                                                                                           |     |



# MINTAQALARDA MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNING TA'MINLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLARNI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYASI

**Xolbekova Feruza Rasulovna**

I.f.n., Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti  
"Korporativ boshqaruv" kafedrasida katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi mintaqalarida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga ta'sir etuvchi omillar o'rganib chiqilgan bo'lib, mintaqalar makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning asosiy omillaridan biri sifatida xudda yaratilgan innovatsion muhit deb qaralgan. Shuningdek, innovatsiyaning nazariy-tashkiliy tomonlari va muammolari o'rganib chiqilgan. Alohida olingan mintaqalarda innovatsion siyosatni rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** mintaqalar iqtisodiyoti, makroiqtisodiy barqarorlik, innovatsion muhit, innovatsion faoliyat.

**Abstract:** In this article, the factors affecting the provision of macroeconomic stability in the regions of the Republic of Uzbekistan were studied, and the regions were considered as one of the main factors of the provision of macroeconomic stability as the innovative environment created in the territory. Theoretical and organizational aspects and problems of innovation are also studied. Proposals and recommendations for the development of innovation policy in selected regions are given.

**Key words:** regional economy, macroeconomic stability, innovative environment, innovative activity, innovative policy.

**Аннотация:** В данной статье изучены факторы, влияющие на обеспечение макроэкономической стабильности в регионах Республики Узбекистан, а созданная в регионе инновационная среда рассматривается как один из основных факторов обеспечения макроэкономической стабильности. Также изучаются теоретические и организационные аспекты и проблемы инноваций. Даны предложения и рекомендации по развитию инновационной политики в отдельных регионах.

**Ключевые слова:** региональная экономика, макроэкономическая стабильность, инновационная среда, инновационная деятельность.

## KIRISH

Ma'lumki, iqtisodiyotning uzoq muddat davomida yuqori sur'atlar bilan o'sishi – barqaror iqtisodiy o'sish hisoblanadi. Har bir mamlakat o'z aholisi turmush farovonligini va iqtisodiyotini muttasil oshirib borishga harakat qiladi. So'nggi yillarda mamlakatimizda yaratilgan qulay makroiqtisodiy sharoit hisobiga milliy iqtisodiyotimiz barqaror rivojlandi. Shu o'rinda aytin o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli Farmonining "Milliy iqtisodiyotning jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" yo'nalishida keltirilgan strategiyaning 22-maqsadida yirik sanoat tarmoqlari va hududiy korxonalar o'rtasida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish kabi vazifalar belgilab qo'yilgan<sup>1</sup>.

Mintaqalarda makroiqtisodiy barqarorlikning ta'minlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omilardan biri - hududda tashkil etilgan innovatsion muhit hisoblanadi. Innovatsiyalarning paydo bo'lishi ortida uzoq yillar davomida amalga oshirilgan o'ta mashaqqatli mehnat yotadi. Ammo ko'pincha, innovatsiyani yaratishdan ko'ra, uni singdirish o'ta qiyin masalaga aylanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekistonda innovatsiyalarga "yashil chiroqni" yoqish maqsadida, "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi Farmonni imzoladi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni, "Xalq so'zi" gazetasi 1 fevral 2022-y.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsion faoliyat va innovatsion marketing tushunchalarining asosini “innovatsiya” so’zi tavsiflaydi. Ta’kidlash kerakki, bu tushunchaga o’zbek, rus va xorij adabiyotlarida ham ko’plab ta’riflar berilgan. “Innovatsion faoliyat” atamasi negizida, ko’rinib turibdiki, avvalambor, “innovatsiya” so’zi, ushbu so’z negizining o’zida esa, “novatsiya” so’zi yotadi. O’zbek tili lug’atiga bu so’zlar xorijiy tillardan kirib kelgan. Chunonchi, inglizcha “innovation”, ruschasiga “innovatsiya” so’zi lug’atlarda “novovedeniye”, “novatorstvo” sifatida talqin etilgan. Rus tilida berilgan talqinga ko’ra, bu so’z o’zbek tiliga “yangilik kiritish”, “yangi usul”, “kiritilgan yangilik” kabi ma’nolarda tarjima qilingan va izohlangan. O’zbek tili izohli lug’atida “Innovatsiya” atamasiga – iqtisodiyotda texnika va texnologiyaning yangi turlarini (avlodlari) joriy etish maqsadida sarflangan mablag’lar tushunchasi sifatida keltirilgan<sup>2</sup>.

“Innovatsiya” mohiyatan murakkab, ko’p qirrali masala bo’lib, bu iqtisodchi olimlar yondashuvdagi farqlar bilan ham izohlanadi. Xorijning iqtisodiy adabiyotlarida “innovatsiya” salohiyatli fan-texnik taraqqiyotni yangi mahsulotlar va texnologiyalar ko’rinishida ro’yobga chiqishi sifatida talqin qilinadi<sup>3</sup>.

Butun jahon iqtisodchi olimlari “innovatsiya” atamasiga ta’rif berishda, turlicha yondashuvlarni amalga oshirishgan. Ular “innovatsiya”ga bir- biridan farqli ravishda innovatsiyalarni yaratish, rivojlanish kabi ta’riflar bilan boyitganlar. Masalan, birinchi yondashuv tarafdorlaridan biri X. Bernet: “Innovatsiya - yaratiladigan yangilik, har qanday g’oya, faoliyat yoki moddiy natija” bo’lishi mumkin degan ma’noda ta’rif bergan bo’lsa, P. F. Druker esa “Innovatsiyani biznesning yangi bir turi” deb qayd etgan. Ikkinchi yondashuv olimlari birinchi yondashuv olimlaridan farqli ravishda asosiy e’tiborni ishlab chiqarishga qaratishgan. Umuman olganda, jahonning ko’zga ko’ringan iqtisodchi olimlari “innovatsiya”ga ta’riflarni turlicha berib, bir - birlarini fikrini to’ldirib borishgan. Masalan, Ya. Kuk va P. Mayerslar “Innovatsiya-g’oyaning paydo bo’lishidan uning tayyor mahsulotga aylanib, bozor iste’moliga chiqqunga qadar bo’lgan butun jarayon” deb ta’rif berishgan<sup>4</sup>.

M. Dodgsonning ta’kidlashicha esa “Innovatsiya - u o’ziga ilmiy, texnologik, tashkiliy va moliyaviy faoliyatni mujassam etgan holda tijoratga yangi (yoki takomillashgan) mahsulot, yoki yangi (yoki takomillashgan) ishlab chiqarish jarayonini yoki yangi (yoki takomillashgan) uskunani taklif etishdir”<sup>5</sup>.

Innovatsion nazariyaning asosiy rivojlanish bosqichlari V. Zombrat, V. Mitcherxil, Y. Shumpeter tadqiqotlariga to’g’ri kelgan. Innovatsiyalar nazariyasini shakllanishi va rivojlanishiga, dastlab, avstriyalik olim iqtisodchi Y. Shumpeterning hissasi katta. U innovatsion konyunktura siljishlari manbalarini tahlil qilish natijasida, ishlab chiqarishning yangi omillarini ajratdi va ularga quyidagilarni kiritdi:

- yangi xususiyatlarga ega mahsulotni ishlab chiqarish;
- yangi ilmiy kashfiyot yoki tijoratlashtirish usuliga asoslangan ishlab chiqarish uslubini joriy etish;
- sanoatning biron bir tarmog’ida taqdim etilmagan, yangi savdo bozorlarini o’zlashtirish;
- xom ashyoning yangi manbasidan foydalanish;
- ishlab chiqarishni tegishli tarzda qayta tashkil etilishini amalga oshirish, monopoliyani ta’minlash<sup>6</sup>.

Birinchi bor Yozefo Shumpeteroning asarlarida “Iqtisodiy innovatsiya” tushunchasi paydo bo’ldi. Uning fikricha, innovatsiyaning asosiy xusu-siyati shundaki, innovator (ijrochi) uni amaliyotga joriy qilish bilan bog’liq jarayondan qo’shimcha boylik oladi. Shuning uchun har qanday yangilik amaliyotga ijobiy qo’llanmaguncha va foyda keltirmaguncha innovatsiya hisoblanmaydi<sup>7</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

O’rganish jarayonida mavzu bo’yicha statistik ma’lumotlar va nazariyalarni o’rganishda mantiqiy fikrlash, ilmiy kuzatish, tizimli yondashuv, statistik usullar qo’llanildi. Tahlil davomida O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasining ma’lumotlaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda yangidan yangi iqtisodiy tushunchalar ham paydo bo’lmoqda. Misol uchun, Makroiqtisodiyot tushunchasi iqtisodiyotning barcha tizimlarini, mamlakatlarni yoki global iqtisodiyotni umumiy ravishda o’rganish va tahlil qilishga asoslangan iqtisodiyotning bir bo’limidir. Bu

2 Qaxxorov A.J.. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali №6, noyabr-dekabr, 2015 yil. [www.iqtisodiyot.uz](http://www.iqtisodiyot.uz)

3 Yo’ldoshev N.Q., Mirsaidova Sh.A., Goldman Y.D. Innovatsion menejment. Darslik. –T.; TDIU. 2011. 6-b

4 Cooke Ian, Mayers P. Introduction to Innovation and Technology Transfer Boston: Artech House, Inc., 1996

5 Dodgson M. The management of technological innovation: An international and strategic approach. – Oxford University Press, 2000.

6 Kamiljanov B.I. Innovatsiyaviy menejment uslublarini takomillashtirish. Monografiya.- T.; Fan, – 2007. 172 b.

7 The Theory of Economic Development (1934). <https://dic.academic.ru>



tushuncha mamlakatning iqtisodiyotini o'rganishda yordam beradi va iqtisodiyotning o'rtacha darajada rivojlanishini, istiqboligini va sifatini baholashda muhimdir.

Mamlakat iqtisodiy rivojlanishini o'rganishning maqsad vazifalaridan kelib chiqib, ularga ta'sir etuvchi omillarni ham ikki guruhga bo'lib o'rganishimiz mumkin:

- mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishiga tashkiliy jihatdan ta'sir etuvchi omillar;
- mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishiga boshqaruv jihatdan ta'sir etuvchi omillar.

Mintaqalar iqtisodiyotni rivojlanishiga tashkiliy jihatdan ta'sir etuvchi omillarga oldingi bobimizda ko'rib o'tganimizdek, quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- mintaqaning joylashgan joyi va tabiiy sharoiti;
- transport kommunikatsiyaning holati;
- mahalliy aholining kelib chiqish tarixi va soni;
- mahalliy aholining ishlab chiqarish madaniyati;
- tabiiy resurslarning tarkibiy tuzilishi va sifati;
- mintaqaning ma'muriy-boshqaruv tizimi.

Mintaqalar iqtisodiyotni rivojlanishiga boshqaruv jihatdan ta'sir etuvchi omillarga quyidagilarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

- mintaqada yaratilgan innovatsion muhit;
- mamlakatda olib borilayotgan soliq siyosati;
- investitsiyalarni jalb qilishga yaratilgan sharoitlar.

Innovatsion siyosat quyidagi asosiy tamoyillar asosida shakllantirib boriladi:

- mamlakat iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish strategiyasi va modelini ustuvor vazifa deb e'tirof etish;
- innovatsiyalarni iqtisodiy o'sishning muhim omiliga aylantirishni ta'minlaydigan iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlarni yaratish;
- innovatsiyalar va tadbirkorlikni mustahkamlash uchun bozor mexanizmlaridan yuqori darajada foydalanish, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun teng imtiyozlar yaratish;
- ilmiy-texnik salohiyatini samarali rivojlantirish va undan foydalanish hamda uni iqtisodiy siyosat maqsadlariga muvofiq ravishda isloh qilish;
- mahsulot ishlab chiqaruvchilar va investorlar manfaatlarini optimallashtirish, intellektual mulkni daromad manbai sifatida tan olinishi;
- hududiy aholining mehnat ko'nikmasi va mentalitetini inobatga olish.

Agar yuqorida keltirib o'tilgan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning strategiyasini tahlil qiladigan bo'lsak, innovatsion siyosatning asosiy tamoyili hisoblangan mamlakat iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish strategiyasi va modeli yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan belgilab berilgan.

Innovatsion siyosatini to'g'ri shakllantirish qiyin jarayon bo'lib, uning quyidagi uch asosiy jihati mavjud:

1. **Innovatsion siyosat yo'nalishini to'g'ri belgilab olish.** Ushbu bosqichda, kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bozor munosabati holatlarini tahlil qilish va istiqboldagi maqsadlarni tahmin qilish vazifasi hisoblanadi. Bu yerda qiyinchilik, hudud innovatsion siyosatini ishlab chiqaruvchilar hayot tajribasiga ko'proq tayanishga to'g'ri keladi. Shundan so'ng, ular kelajakda muqobil maqsadlarga erishish fikrlarni shakllantirishlari kerak. Bu yerda qaror qabul qilishning asosiy usuli - innovatsiya siyosati yo'nalishini to'g'ri tanlash usulidir.
2. **Innovatsiyani rejalashtirish strategiyasi.** Ushbu bosqichda avvalgi bosqichda tanlangan maqsadlarga erishishning muqobil usullari va vositalarini ishlab chiqish zarur. Keyin, taqqoslash va baho berish orqali barcha keraksiz variantlardan voz kechilib, yakuniy strategiya ishlab chiqiladi. Ushbu strategiyada




innovatsiyani izlash va rivojlanishning umumiy yo'nalishi, innovatsiya maqsadlariga erishish yo'llari, shuningdek, uning texnik-iqtisodiy asoslari tasvirlanadi. Bundan tashqari, strategik rejalashtirishning yakuniy natijasi bevosita innovatsion loyihani yaratishdir.

3. **Innovatsiyani rejalashtirishning tezkorligi.** Bu yerda innovatsion loyiha alohida bosqichlarga bo'linadi. Olingan bosqichlarning bir qismi sifatida, innovatsion siyosatni ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqilgan strategiyani amalga oshirishga qaratilgan alohida tadbirlarni rejalashtirishi kerak. Har bir vazifani ma'lum boshlash va tugatish sanasini, ijrochilar sonini, kerakli resurslar miqdori va boshqalarni aniqlab olishi kerak. Tezkor (operatsion) rejalashtirish natijasida innovatsiyani amalga oshirish bo'yicha batafsil izchil harakat rejasi belgilab olinadi.

Xorijiy rivojlangan davlatlar innovatsion faoliyatni amalga oshirishda ilmiy tadqiqot ishlariga katta hajmda investitsiya kiritib kelmoqda, masalan Germaniya yalpi ichki mahsulotining 2,7 foizini, AQSH 2,8 foizini, Yaponiya 3,5 foizini, Rossiya 1,04 foizini ilmiy – tadqiqot ishlariga yo'naltirgan<sup>8</sup>.

Singapur sobiq bosh vaziri Li Kuan Yu shunday fikrni bildiradi: "Ko'pchilik mendan Singapurning rivojlangani haqida so'rab, shunday savol berishadi, "Qanday qilib ulkan davlatdan ajralib chiqib, mittigina hudud bilan rivojlangan davlatga aylandinglar? Bu "Mo'jiza"ni qanday amalga oshirdingiz?" Ularga javoban shunday dedim: "Men Singapurda mo'jiza yaratmadim. Men faqat Vatanim oldidagi burchimni bajardim, xolos. Davlat budjetining ko'roq qismini ta'limga yo'naltirdim<sup>9</sup>.

Li Kuan Yuning fikrlaridan ko'rinib turibdiki, intellektual mulk innovatsion faoliyatining asosini tashkil etadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, hududiy innovatsion siyosatning tashkiliy jihatdan quyidagi ikki turga ajratish mumkin (1-rasmga qarang).



1-rasm: Hududiy innovatsion siyosatning tashkiliy jihatdan guruhlanishi

Hududiy innovatsion siyosat bilan xo'jalik yurituvchi subyekt innovatsion siyosatining farqi shundaki, hududiy innovatsion siyosat, makrodarajada namoyon bo'lib, uni shakllantirishda "Deduksiya" usuliga, xo'jalik yurituvchi subyekt innovatsion siyosati mikrodarajada namoyon bo'lib, uni shakllantirishda "Induksiya" usuliga tayanamiz. Lekin innovatsion siyosatni ishlab chiqishda alohida-alohida hududni ham, xo'jalik yurituvchi subyektini ham o'ziga xos xususiyatlari va jihatlari hisobga olinishi kerak.

Mintaqa innovatsion siyosatni olib borishda quyidagi omillarga e'tibor berilishi kerak:

- Mintaqaning iqtisodiy salohiyati va ishlab chiqarish kuchlarining joylashishi.
- 2. Mahalliy aholining kelib chiqish tarixi va mentaliteti.
- 3. Mahalliy aholining ishlab chiqarish madaniyati va ko'nikmasi.
- 4. Ilmiy tadqiqotga yaratilgan muhit.
- 5. Mintaqaning ma'muriy-boshqaruv tizimi tomonidan olib borilayotgan innovatsion siyosat.
- Xo'jalik yurituvchi subyekt innovatsion siyosatini olib borishda quyidagi omillarga e'tibor berilishi kerak:
- 1. Ilmiy-texnik salohiyati.
- 2. Moddiy-texnik ta'minot bazasi.
- 3. Faoliyat turi va mulkchilik shakli.
- 4. To'lovga qodirlik darajasi.
- 5. Boshqaruv tizimining talab darajasi.

8 Расходы на НИОКР (в % от ВВП). Данные Всемирного банка за 2008 год.  
9 Manba: www.Central Asia.com



Xo'jalik yurituvchi subyekt innovatsion siyosatini mintqa innovatsion siyosati asosida olib borilishi kerak. Shuningdek, ishlab chiqilgan innovatsion siyosatni amaliyotga qo'llab, ijobiy natijaga erishishda har xil rag'batlantiruvchi mexanizmlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, innovatsion faoliyatni amalga oshirishda ilmiy tadqiqot tizimiga soliq imtiyozlarini qo'llash, ilmiy-texnik faoliyatni subsidiyalashtirish, ilmiy-texnik mahsulot yaratuvchi va iste'molchilarini uzoq muddatli imtiyozli kreditlar bilan ta'minlash, ilm-fan xodimlarining mehnatini rag'batlantirib borish, yosh ilmiy xodimlarni qo'llab-quvvatlash.

Iqtisodiy islohotlarni rivojlantirish natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlar, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar xususiy korxonalar, aksiyadorlik jamiyatlari, qo'shma korxonalar va boshqa tadbirkorlik subyektlari uchun tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun keng imkoniyatlar ochildi. Iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni keng miqyosda jalb qilish va shu asosda korxonalar tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada rivojlantirish islohotlarning bugungi kundagi ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz yetakchi tarmoqlarida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, xalqaro sifat standartlariga o'tish bo'yicha turli muddatlarga mo'ljallangan dasturlar ishlab chiqilgan va izchil ravishda amalga oshirib kelinmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rinda aytishimiz mumkin-ki, inovatsiyalar mamlakat iqtisodiyotni rivojlantiruvchi hamda mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotida inovatsion yutuqlar hajmini oshirish eng muhim dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Inovatsion yutuqlarning hajmi oshishi bu yangi korxonalarning qurilishi, mavjudlarining modernizatsiya qilinishi, yangi mahsulot turlarining paydo bo'lishi, raqobatni kuchayishidan dalolat beradi. Shundan kelib chiqqan holda, inovatsiyaning mamlakat makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ahamiyati beqiyosdir.

Ko'rib turganingizdek O'zbekiston jamiyatining rivojlanishning innovatsion yo'li murakkabdir. Ushbu yo'lda muvaffaqiyat qozonish uchun erishilgan natijalarni birlashtiradigan va belgilangan maqsadlar sari borishda yangi imkoniyatlar yaratadigan milliy innovatsion tizim, institutlar tizimi, munosabatlar, ijtimoiy amaliyot juda muhimdir. Innovatsion rivojlanish, jamiyatni modernizatsiya qilish biz uchun mutanosib qarorlar, mehnatsevarlik, davlat, jamiyat, biznes va nodavlat sektorning sa'y-harakatlarini birlashtirishni talab qiladigan asosiy jarayon hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni, "Xalq so'zi" gazetasi, 1-fevral 2022-y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgust PF-5495-son "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni.
3. 2005-yilda mamlakatni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2006-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlari. "Xalq so'zi" 11-fevral, 2006-y.
4. Cooke Ian, Mayers P. Introduction to Innovation and Technology Transfer Boston: Artech House, Inc., 1996.
5. Dodgson M. The management of technological innovation: An international and strategic approach. – Oxford University Press, 2000.
6. The Theory of Economic Development (1934). <https://dic.academic.ru>
7. Васильева Л.Н., Муравьева Е.А.. Методы управления инновационной деятельностью. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2005. – 320 с.
8. Yo'ldoshev N.Q., Mirsaidova Sh.A., Goldman Y.D. Innovatsion menejment. Darslik. – T.; TDIU. 2011. 6-b.
9. Kamiljanov B.I. Innovatsiyaviy menejment uslublari takomillashtirish. Monografiya. – T.; Fan, – 2007. 172 b.
10. Malikov T. Soliq yuki. "Xalq so'zi" 2006-yil 24-yanvar, №7.
11. Расходы на НИОКР (в % от ВВП). Данные Всемирного банка за 2008 год.
12. Qaxxorov A.J.. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali №6, noyabr-dekabr, 2015-yil. [www.iqtisodiyot.uz](http://www.iqtisodiyot.uz)
13. Yahyoyev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. – Darslik. – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. – 16 bet.
14. [www.CentralAsia.com](http://www.CentralAsia.com)

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2024. № 6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

